

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>U.I.Nosirova, L.A.Ernazarova</b>	
Nasriy matnlardagi sintaktik-stilistik figuralarning pragmatik jihatlari.....	212
<b>O.I.Yadgarova</b>	
Shaxsni o'rganishda projektiv metodikalarning afzalliklari tahlili .....	216
<b>O.M.Xalimova, A.A.Xusanov</b>	
Ovoz buzilishlari: ovoz buzilishlarini turlari va kelib chiqish sabablari .....	221
<b>D.X.Turdiboev</b>	
O'quvchilarning matematik savodxonligini oshirishda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini ahamiyatlilik darajasi.....	224
<b>Sh.D.Ismoilov</b>	
O'smir yoshdagi o'g'il bolalarni hayotga tayyorlash kompetensiyasini shakllantirishning tamoyillari .....	227
<b>S.A.Yaxyayeva</b>	
Yoshlarda estetik madaniyatni rivojlantirishning tarixiy zaruriyati va mafkuraviy asoslari.....	231
<b>B.B.Nizomova, O.T.Sobirov, G.G'.Xomidova</b>	
Maktab 7-sinf biologiya darsligidagi "Bakteriyalar. Protistalar. Zamburug'lar" mavzusida tabiiy fanlar integratsiyasini ta'limdagi ahamiyati .....	236
<b>G'.B.Samatov.S.Mo'minjonov</b>	
Ikki atomli gazlarda tebranma-ilgarilanma energiya almashinish ehtimolligini hisoblash.....	248
<b>X.R.Saidova</b>	
Ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmlari.....	254
<b>J.B.Hamraqulov</b>	
Talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari .....	259
<b>Sh.H.Yusupaliyeva</b>	
Texnik oliy o'quv yurtlarida chet til darslarini tashkillashtirishda o'g'zaki nutq kompetensiyasini samarali qo'llash usullari.....	263
<b>X.R.Umarov</b>	
O'quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida .....	266
<b>X.M.Madazimov</b>	
Bir hikoya talqinida bosh qahramon qiyofasi .....	274
<b>B.T.Yunusaliyev</b>	
Modus kategoriyasining modallilikni o'rganishdagi ahamiyati. ....	277
<b>K.I.Qosimov</b>	
Abdulla Qodiriy – XX asr geniysi .....	280
<b>M.A.Xusanova, M.A.Xusanova</b>	
Somatik kodlar tadqiqiga doir .....	287
<b>M.O.Rahimova</b>	
O'zbek tilida leksik nomemalar.....	290
<b>N.S.Qobilova, M.T.Hojiyeva</b>	
Umumiy taqiqlovchilar va ularning komponentlari.....	293
<b>A.M.Rasulova</b>	
To'siqsizlik munosabatining jahon tilshunosligida o'rganilishi .....	297
<b>Z.V.Alimova, U.A.Soxibova</b>	
Frazeologik birliklar va ularning semantik tahlili.....	300
<b>I.I.Akramov</b>	
Aforizmlarni pragmatik tushunish aspektlari .....	305
<b>B.A.Yunusova</b>	
Kombinator leksikografiya – tilshunoslikning nazariy va amaliy asosi.....	310
<b>Z.H.Usmonova</b>	
Rey Bredberning "Marsga Hujum" ("the martian chronicles") asari bilvosita tarjimasida tarjima usullari va o'ziga xos xususiyatlari .....	315
<b>A.M.Mamarasulov</b>	
Osmon va yer tushunchalarining qiyosiy semantik tadqiqi.....	319
<b>L.X.Badalova</b>	
Ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishda storytelling yondashuvining ahamiyati .....	322

## O'ZBEK TILIDA LEKSIK NOMEMALAR

## ЛЕКСИЧЕСКИЕ НОМЕНЫ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

## LEXICAL NOMEMES IN UZBEK LANGUAGE

Rahimova Maftuna Odilovna<sup>1</sup><sup>1</sup>Rahimova Maftuna Odilovna

– QDPI filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada o'zbek tilidagi so'zlar nomemasining o'rganilish usullari va ahamiyati haqida fikrlar berilgan. Har bir milliy, xususan, o'zbek tili so'zlari ifodalovchi (nomema)larining tuzilish xususiyatlarini o'rganish hozirgi dolzarb muammolardan biri ekanligi aniq misollar asosida ta'kidlangan. Nomemalarni o'rganish bo'yicha bir nechta tavsiyalar berilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье приведены мнения о методах и важности изучения произношения слов в узбекском языке. На конкретных примерах подчеркивается, что изучение структурных особенностей слов каждого национального, в частности, узбекского языка, является одной из актуальных проблем современности. Существует несколько рекомендаций по изучению существительных.*

**Abstract**

*In this article, opinions are given about the methods and importance of studying the pronunciation of words in the Uzbek language. It is emphasized on the basis of specific examples that the study of the structural features of each national, in particular, Uzbek language words, is one of the current urgent problems. There are several recommendations for studying nouns.*

**Kalit so'zlar:** *Leksema, semema, nomema, undosh, unli, fonetik tuzilish, fonetik hodisalar.*

**Ключевые слова:** *лексема, семема, номема, согласная, гласная, фонетическая структура, фонетические явления.*

**Key words:** *lexeme, sememe, nomeme, consonant, vowel, phonetic structure, phonetic phenomena.*

**KIRISH**

So'z ifodalovchisi yoki nomemasi yasalishining eng muhim qurilish materiali bu undosh tovushlardir. Ong taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda tushunchalar miqdorining uzluksiz oshib borishi o'z-o'zidan tushunchalarning "tutqichi", farqlab ko'rsatuvchisi, belgisi bo'lgan so'zlar tovush tomonlarining ham miqdoran ko'p bo'lishini talab etar edi. Unli tovushlar miqdorining ozligi, ularning bir-biri bilan bog'lana olmasligi (turli kombinatsiyalarga kirisha olmasligi) bu tovushlar yordamida nomemalar hosil qilish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Yangidan yangi tushuncha (ma'no)larning uzluksiz ravishda ko'payib borishi kishilardan boshqa tip (tur)dagi tovushlarni ham vujudga keltirish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bu esa odamlardan unli tovushlar hosil qilinadigan bo'g'iz, tomoq, og'iz bo'shlig'idan boshqa artikulyatsiya o'rinlarini ishga solish, shuningdek, nutq organlari yordamida turli-tuman to'siqlar hosil qilish, har bir nutq organi holatidan ko'proq foydalanish kabi usullar topishni taqozo etar edi. Ana shunga javoban bo'g'iz, til, lab, burun kabi o'rinlardan foydalanish, tilni qattiq, yumshoq tanglaylarga, tishga tekkizish (jipslash) kabi usullar yordamida katta miqdordagi undosh tovushlar hosil qilindi. Vujudga keltirilgan sonor, jarangli, jarangsiz undosh tovushlar va unlilar o'zaro bog'lanib, ko'p miqdordagi nomemalarni shakllantirdi. Undoshlardagi sonorlik, jaranglilik, jarangsizlik kabi akustik sifatlar leksik akustik belgilarning o'zaro farqlanishiga samarali xizmat qildi. Unli+undosh, undosh+undosh kabi sintagmatik bog'lanishlarning turli variantlari katta miqdordagi nomemalar miqdorining vujudga kelishiga asos bo'ldi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Har bir milliy, xususan, o'zbek tili so'zlari ifodalovchi (nomema)larining tuzilish xususiyatlarini o'rganish hozirgi dolzarb muammodir. Zero, bundan, avvalo, fonetika va fonologiyamiz katta foyda ko'radi. Bunga sabab belgi maqomidagi nomemalar tizimini o'rganish davomida o'zbek tilining, avvalo, adabiy tilimiz so'zlarining fonematik strukturasi to'liq tadqiq etiladi. Bunda mavjud so'zlarimizdan har birining necha fonemadan iborat ekanligi, har bir fonemaning qaysi pozitsiyalarda necha marta qo'llanilganligi, fonologik kuchli-kuchsiz o'rinlar, fonemaning shu asosdagi fonologik qiymatlari aniqlanadi. Ikkinchi tomondan, bir tovushli, ikki tovushli, uch tovushli

## ILMIY AXBOROT

kabi nomemalar aniqlanib, bu nomemalarning belgi sifatida nutqiy qo'llanishidagi akustik xususiyatlari, o'z ifodalanmishiga munosabatlari belgilanadi. Bu tarzda tadqiqotlarning nafaqat fonologiya-fonetika, belgishunoslik, balki so'zlarni kompyuterlashtirish uchun ham ahamiyati kattadir.

So'z ifodalovchisi yoki nomemasi haqida fikr yuritilar ekan, yana bir masalaga e'tibor berilishi lozim. Hozirga qadar bo'lgan fonetikaga oid adabiyotlarda fonetik o'zgarishlar sabablariga katta e'tibor berilmadi. Fonetik o'zgarish so'z ifodalovchi (nomema)si tarkibida bo'layotgan tovush hodisasidir. Bu hodisani tavsiflashda nomemaning belgi ekanligi, so'zlovchining bu belgini qo'llashdagi o'ziga xos holatlaridan kelib chiqmoq kerak. Boshqacha aytganda, fonetik o'zgarish tahlili nomemani qo'llovchi (so'zlovchi) va qabul qiluvchi (tinglovchi) omili bilan bog'liq holda olib borilmog'i lozim. Ma'lumki, inson faoliyatiga xos xususiyatlardan biri tejamkorlikdir. Ayrim fonetik o'zgarishlar nutqiy faoliyatning shu tomoni bilan bog'liq. Bunga nomema qo'llashdagi tovush tushirish hodisasi misol bo'la oladi. Masalan, go'sht, do'st kabi so'zlardagi oxirgi t tovushining tushirilishi; biroq, bilan so'zlarida i tovushining qisqartirilishi yoki kuchsizlantirilishi (reduktsiyaga uchrashi) kabilardir. Bunda so'zlovchi talaffuz mehnatini tejaydi, chunki bu so'zlarning t va i tovushlari aytilmasa ham, nomemaning qolgan qismlari o'z ifodalanmishlari haqida xabar bera oladi. Shuningdek, maktab, e'zoz, barg so'zlaridagi jarangli undoshlarning jarangsizlashtirilishi ham nomemalar qo'llanishidagi o'ng'aylikka intilish, "ortiqcha" talaffuzdan qisman qutilishga harakat qilinishidir. Zero, maktab so'zi oxiridagi b tovushida ham shovqin, ham ovoz (jarang) bor. So'zlovchi shovqinli va ovozli b o'rniga shovqinli (jarangsiz) p ni aytib qo'ya qoladi. Chunki maktab so'zining makta... qismi aytilishi bilan ifodalanmish ma'lum bo'ladi, shundan so'ng b yoki p ekanligining ahamiyati bo'lmaydi. Natijada, b va p tovushlari variantlar maqomiga ega bo'lib qoladi. Xullas, bir tovushning boshqasiga almashtirilishi, bo'g'in va tovushlar tushirilishi nomema-belgi qo'llashdagi so'zlovchi faoliyati bilan aloqador ekstralingvistik hodisalarga bog'liq. Tovush orttirilish hodisasining ham o'ziga xos sabablari bor. Masalan, uchinchi shaxs kishilik olmoshi u ga kelishiklar qo'shilganda, u va kelishik affiksi orasida n tovushi orttirilishi hodisasini olaylik: u+dan → undan. Ushbu holatda "nutq jarayonida yo'q kishiga ishora" ma'nosi bir unli (u) dan iborat so'z bilan ifodalangan. Chiqish ma'nosi esa -dan fonetik struktura (sonema)ga ega. O'zbek tilining urg'u qonuniyatiga ko'ra u+dan so'z shaklda urg'u oxirgi bo'g'inga tushishi lozim. Bu holatda so'zning eng muhim, ya'ni leksik ma'no ifodalovchi qismi bir unlidan iborat bo'lganligi, urg'usiz (ikkinchi darajali urg'uli) bo'g'inni tashkil etganligi sababli o'ta qisqa, bilinar-bilinmas aytilishi lozim bo'lib qoladi. Buning natijasida tinglovchi bu so'zning leksik ma'nosini aniq tushunib olishga qiynalar edi. Buni oldindan hisobga olgan so'zlovchi asosiy leksik ma'no ifodalovchi u- o'zak asosni aniq talaffuz etish va tinglovchiga ravshan yetkazish chorasini izlaydi. Shu maqsadda so'zlovchi u - o'zak qismni unga n undoshini qo'shib (orttirib), un bo'g'inini hosil qiladi va shu bo'g'in tarkibidagi u o'zakni cho'ziqroq, aniq aytish imkoniga ega bo'ladi. Shu yo'l bilan udan tarkibidagi u ni urg'uli -dan bo'g'in ta'siridagi qisqa aytilishdan saqlab qoladi. Demak, uchinchi shaxs u olmoshiga -dan kelishigi oldidan n undoshining orttirilishi so'zning leksik ma'no ifodalovchi qismini, uning ma'nosini tinglovchiga aniq yetkazish yo'lidagi fonetik tadbirdir. Shunday qilib, har bir tovush orttirilishining o'ziga xos sababi borki, bu shaxs (so'zlovchi, tinglovchi) omili bilan bog'liq.

#### NATIJARLAR VA MUHOKAMA

So'z ifodalovchisi yoki nomemasining tarkibiy o'zgarishlari talqinida uning nutqdagi boshqa so'z ifodalovchilari bilan bog'lanishini, sintaktikani ham unutmash kerak. So'z nomemalari nutq (matn)da bir-birlariga turli darajalarda qo'shib, jipslashtirib yoki ajratib talaffuz etilishi va bu jarayon ham har bir nomemaning ichki tuzilishiga ta'sir etishi mumkin. Demak, nomemalarning nutqdagi sintagmatik munosabatlari va bu bilan bog'liq fonetik o'zgarishlar belgi (nomema) qo'llanishi nuqtai nazaridan ham o'rganilishi lozim bo'lgan masaladir. Shuning uchun F. de Sossyur o'z davrida so'zning cho'ziqligi, chiziqsimonligini o'rganish lingvistik, uning semiotik jihatini anglashda katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib o'tgan edi.

Omonim va polisemantik nomemalar leksik nomemalar tizimida alohida o'ringa ega. Bunday turdagi nomemalarni o'rganishda ularning belgi sifatida qo'llanish jarayonida qanday talaffuz (fonetik) farqliklar mavjudligi, har bir omonim, polisemantik nomema uchun necha leksik ma'no (semema) to'g'ri kelishi, sememalarning distributsiyasi (qo'llanish kontekstlari) kabilarni hisobga olish lozim.

Nomemalarning o'rganilishida bir nomemaning boshqalari bilan bo'lgan o'xshashlik-farqlilik darajasini o'rganish nutqiy faoliyat tadqiqotlari uchun ahamiyatlidir. Zero, nomemalardagi struktur o'xshashliklar tinglovchi uchun ularni farqlash qiyinchiligini keltirib chiqaradi. Xususan, ona va opa, ona va o'g'il juftliklaridagi farqliliklar har xil darajadadir. Belgi maqomidagi paronim nomemalar semiotika va nutq madaniyati jihatlaridan atroflicha tadqiq etilishi lozim.

Fonemalarning kuchli va kuchsiz oppozitsiyasi pozitsiyalari, turlarini aniqlash har bir milliy til fonemalarining o' ziga xos fonologik-fonetik qiymatlarini bilish imkoniyatini beradi.

Leksik nomema (ifodalovchi) o'rganilayotganda unga aloqador semema (ifodalanmish) orasida motivatsiya bor-yo'qligi, uning shartli-shartsiz ekanligi aniqlanadi.

Leksik nomemalar tuzilishiga ko'ra sodda (sodda tub, sodda yasama) va qo'shma turlarga ajraladi. Belgi qo'llovchi (so'zlovchi) tejamkorlik qonuniga amal qilib, barcha turdagi nomemalarni ixchamroq, qulayroq, ta'sirchanroq aytishga harakat qiladi. Bular ham o'rganishga molik masaladir.

#### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, leksik nomemalar o'rganilayotganda, ularning fonetik variantlaridan semantik differentsiatsiya (tub//tup → tub va tup; art // arch → art va arch) va leksikalizatsiya (kelintushdi), grammatikalizatsiya (avval o'yla... – to'ydan avval) kabilarga e'tibor berilishi lozim. Nomema tadqiqida unga necha semema to'g'ri kelishi va har bir semema – nomema munosabatidagi farqliklarga diqqat qilinadi. Belgi vazifasini bajaruvchi har bir nomemani o'rganishda uning tuzilishiga, belgi qo'llashning qaysi omillari (o'ng'aylik, eshituvchiga qadar bo'lgan masofa, kuchli-kuchsizlik, aniqlik, ta'sirchanlik kabi) hisobga olinganligi aniqlanadi. Ikkinchi tomondan, har bir fonemaning nomema shakllantirish imkoniyatlari o'rganiladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1992. – B. 19 (1. Абдуазизов А. Фонология и морфонология узбекского языка. - Ташкент: Учитель, 1992. - Б. 19.)
2. Mahmudov A. O'zbek adabiy tilida so'zlarning fonetik strukturasi // O'zbek tili va adabiyoti, 1984, 2-son. – B 33-41.9 (2. Махмудов А. Фонетический строй слов в узбекском литературном языке // Узбекский язык и литература, 1984, вып.2. - Б 33-41.)
3. Rakhimova, Maftuna. "ASSOCIATION PHENOMENON AND SIGN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 1761-1764. (3. Рахимова, Мафтунa. «АССОЦИАЦИЯ ЯВЛЕНИЯ И ЗНАКА». Международный журнал междисциплинарных исследований *Galaxy* 10.12 (2022): 1761-1764.)
4. Rakhimova Maftuna Odilovna, & Bazarov Oybek Odilovich. (2023). LINGUOSEMIOTIC STUDY OF UZBEK FOLK PROVERBS. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 9(1), 236–237.( 4. Рахимова Мафтунa Одиловна, Базаров Ойбек Одилевич. (2023). ЛИНГВОСЕМИОТИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦ. *JournalNX - многопрофильный рецензируемый журнал*, 9 (1), 236–237.)